

МАКТАВ ТАБИЙ ГЕОГРАФИЯСИ ДАРСЛАРИДА БАДИЙ ИЖОДИYOTDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI VA XUSUSIYATLARI

A.T.Sobirxonov
Namangan davlat universiteti

ANNOTATSIYA

Maktab tabiiy geografiyasi darslarida ta'lif jarayonlari o'r ganilgan, yangicha ta'lif metodikasi taklif etilmoqda. Ushbu jarayonlarda Geografiya va adabiyot fanlarini integratsiyasi batafsil tushuntirilgan.

Kalit so'zlar: Tabiiy geografiya, materik, badiiy ijod, metodika, integratsiya, badiiy adabiyot, Antarktida, Janubiy Amerika, magnit qutbi, sayyoramiz o'pkasi.

ХАРАКТЕРИСТИКА И ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТВОРЧЕСТВА В ШКОЛЬНОЙ ПРИРОДОПОЛОЖЕЛЬНОЙ ГЕОГРАФИИ

A.T.Собирхонов
Наманганский государственный университет

АННОТАЦИЯ

На уроках естественной географии в школе изучаются учебные процессы, предлагаются новые методы обучения. Подробно объясняется интеграция географии и литературы в эти процессы.

Ключевые слова: Естествознание, континент, художественное творчество, методология, интеграция, художественная литература, Антарктида, Южная Америка, магнитный полюс, планетарные легкие.

CHARACTERISTICS AND FEATURES OF THE USE OF ART IN CLASSES OF NATURAL GEOGRAPHY

A.T. Sobirkhonov
Namangan State University
Uzbekistan, Namangan region

ABSTRACT

At the lessons of natural geography at school, educational processes are studied, new teaching methods are proposed. The integration of geography and literature into these processes is explained in detail.

Keywords: Natural science, continent, artistic creativity, methodology, integration, fiction, Antarctica, South America, magnetic pole, planetary lungs

KIRISH

Har bir fanni rivojlantirish va uning ko‘lumni kengaytirish, ushbu fanni ko‘p jihatdan o‘qitilishiga bog‘liq. Shu ma’noda geografiya darslarida ham dars o‘tishning yangicha usullaridan foydalanish ta’lim sohasidagi va bugungi kundagi eng muhim vazifalardan biri ekanligini inobatga olsak, bu kabi jihatlarga oddiy hol sifatida qarashning o‘zi kifoya. Bu o‘rinda geografiya darslarida badiiy ijoddan foydalanish orqali mavzularni har tomonlama o‘quvchilarga oson, sodda va tushunarli tarzda yetkazish mumkin. Avvalambor, badiiy ijod deganda, geografiya mavzulariga tegishli bo‘lgan biron bir asardan parcha, hikoya yoki sherni tushunish kerak. Keling, shu o‘rinda, ajdodlarimiz bizga qoldirgan tarixiy meroslarni bir eslasak, ko‘p hollarda o‘sha zamondagi voqeа va hodisalar bizgacha badiiy ijod mahsuli hisoblangan asarlar, hikoyalar yoki she’rlar orqali yetib kelganiga ko‘p bora guvoh bo‘lganmiz. Qolaversa, har qanday kitoblarda keltirilgan badiiy asarlar voqeа-hodisalarни kitobxonga o‘zi hohlagandek tushunishiga yordam beradi. Chunki badiiy yo‘l bilangina bu natijalarga erishish mumkin. Shunday ekan, geografiya darslarida biron bir mavzuga bag‘ishlangan badiiy ijoddan namunalar, o‘quvchilarni har tomonlama mavzuni tushunishiga va darslarning qiziqarli bo‘lishiga asos bo‘ladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Geografiya darslarida badiiy ijoddan foydalangan holatda darslar tashkil etilsa, o‘qituvchi dars jarayonida o‘z oldiga qo‘ygan maqsadga yanada ko‘proq erishgan bo‘ladi. Boisi, badiiy ijodda (roman, doston, hikoya, she’r va h. z.) keltirilgan jumlalarda geografik mavzuga tegishli bo‘lgan tayanch so‘zlar, iboralar, atamalar tinglovchilarga, mazmun jihatdan har tomonlama tushunarli bo‘ladi va mavzuni to‘laligicha ochib berishga hizmat qiladi. Masalan, bizga ma’lumki jahonda oltita materik mavjud, (Yevrosiyo, Afrika, Shimoliy Amerika, Janubiy Amerika, Antarktida va Avstraliya) ushbu materiklarni yoritishda badiiy ijod orqali quyidagi she’riy usuldan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Antarktida

Eng sovuq muz bosgan yagona hudud,
Antarktida qit’asiga anchayin xosdir,
„Magnit qutbi“ning o‘rni shu yerda,

Janubiy Amerika

Eng katta iloni, mitti baliqlar,
Eng sersuv daryosi, eng keng sharshara,
„Sayyoramiz o‘pkasi“ deyishar uni,

Chuchuk suv zaxirasi o‘ziga mosdir.
Eng baland yeri Vinson massivi,
Eng past joyidir-Bentli cho‘kmasi,
Muz bo‘laklari ajralib chiqar,
Aysberg – deb atalar uning kattasi.
O‘n ikkita chetki dengizlari bor,
Ilmiy stansiyalar ishlab ham turar,
Transantarktida tog‘ tizmasi ham,
Antarktida qit’asin ajratib turar.

O‘quvchim diqqat qilib, kartaga qara.
Galinas, Froud, Parinyas ham,
Hamda, Kabu-Branku chekka nuqtasi,
O‘rmonlar maydoni ulushi ko‘pdir,
Tekislik hududi uning markazi.
O‘rganing iqlimi, relefini ham,
Geografik o‘rniga ta’rif beringlar,
Globusga qarab, ma’lumot to‘plab,
Mavzuga doir savol tuzinglar.

Yuqorida keltirilgan, materiklarga tegishli ushbu she’nda mavzularni har tomonlama tushunarli yoritilganligini ko‘rish mumkin. Shu bilan bir qatorda u o‘quvchilarga soda tilde, tushunarli tarzda yetib borishi ham diqqatga sazovordir. She’rni tahlil qilish orqali esa, materiklarga tegishli bo‘lgan ma’lumotlarni bemalol olsh imkoniyati mavjud.

Geografiya darslarida badiiy ijoddan foydalangan holda dars o‘tishning bir qator o‘ziga xos jihatlari va xususiyatlari mavjud;

1. O‘quvchilarga geografiya darsligidagi mavzularni, geografik tushunchalarini sodda, ravon va tushunarli holatda yetkazishni ta’minalash;
2. O‘quvchilarning nutq ravonligini oshirish, yodda saqlab qolish qobilyatlarini kuchaytirishga xizmat qilish;
3. Dars mashg‘ulotlari jarayonida mavzular bo‘yicha o‘quvchilar o‘rtasida o‘ziga xos raqobatni vujudga keltirish, shu orqali ularni mavzularga oid tushunchalarini mustahkamlash;
4. O‘qituvchi va o‘quvchilar orasidagi munosabatlarni ilm-fan nuqtayi nazaridan bir-birlarini tushunishiga yordam berish;
5. Dars davomida o‘quvchilarga, badiiy ijod namunalaridan misollar keltirib, geografik obekt va predmetlar to‘g‘risida tasavvurlar uyg‘otish;
6. Mavzular bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni hosil qilishlariga yordam berish;
7. Geografiya fan oyligida va geografik kechalarda bahrubaytlar uyushtirish hamda shu orqali geografiya faniga bo‘lgan qiziqishni yanada ortirish kabilarni o‘z ichiga oladi.

Tarbiyaning makoni bo‘ladi. Har qanday badiiy kitobda va asarda albatta geografiya bor. Bu tabiiy, chunki kitobni o‘qigan, bahs-munozalarda ishtiroy etgan kitobxonlar bularni yaxshi tushunadi.. Hattoki, shu joylarda ham tarbiyaning

masalalari hal etiladi. Hozirgi zamon –sokin yillar emas, balki globallashuv, hayot o‘ta tezlashgan, tahlikali, murakkab zamon ekanligini sezasiz.

Badiiy badabiyotlardan foydalanib keltirilgan materiallar soda, ravon, o‘quvchilar uchun tushunarli holda yozilganligi, darslar davomida ularning miya faoliyati ortiqcha ravishda zo‘raymasligiga, shu bilan birga qisqa matnlarda yoki misralarda keltirilgan ma’lumotlar keng qamrovligi bilan ahamiyatga egadir. Boisi qisqa jumlalarda keltirilgan ma’lumotlar mavzuning to‘laligicha yoritilib berilishi bilan birga, talabalarning qabul qilish imkoniyatini ham anchayin oshiradi.

Geografiya darslarida keltirilgan badiiy ijod namunalari va u orqali berilgan ma’lumotlar hayotiyligi bilan birga, talabalarni go‘yoki voqeа va hodisalarining aynan o‘zini ko‘z oldida gavdalantirib beradi. Bu esa ularni ichki his-tuyg‘ulari orqali, hayoliy kechinmalari orqali aynan geografik mavzularni qabul qiladilar. Hayotga bog‘lab, his-tuyg‘ular, hayoliy kechinmalarga asoslanib o‘tilgan har qanday darslar o‘quvchilarning onggiga ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi. Natijada talabalarda quyidagicha holatlarda faqatgina ijobiy natijalarni ko‘rish mumkin. Bular;

1. Nutqiy savodxonligining oshishi;
2. Esda saqlab qolish (xotira) qobilyatining kuchayishi;
3. Estetik tarbiyaning o‘sishi;
4. Tabiatga bo‘lgan muhabbatning kuchayishi;
5. Aqliy qobilyatning rivojlanishi;
6. Mavzularni ilmiy jihatdan tushunish darajasining o‘sishi;
7. Ma’naviy dunyoqarashning rivojlanishi;
8. Ijodiy qobilyatning kuchayishi;
9. Tarbiyaning optimallashuvi;
10. Diqqatni bir joyga to‘planishi;
11. Darsga bo‘lgan qiziqishning ortishi;
12. Kitobga bo‘lgan munosabatning yaxshilanishi kabilarni yanada rivojlanishi-ga sabab bo‘ladi.

Demak, geografiya fanini badiiy adabiyotlarga bog‘lagan holda darslarning olib borilishi, o‘quvchilar ongiga har tomonlama ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi. Yuqorida sanab o‘tilgan qobilyatlarning rivojlanishiga ayrim misollarni ko‘rib chiqamiz. Masalan: ko‘p kitob o‘qigan va tinglagan bolaning savodxonligi hamda nutq ravonligi oshadi. Qolaversa, she’r yodlagan tinglovchingning xotirasi har tomonlama kuchayadi. Natijada unda ijodiy qobilyatlar uyg‘onadi va uni faoliyatda undaydi. Bu kabi misollarni ko‘palab keltirish mumkin.

Har qanday qilinadigan ilmiy ish jarayonida nazariya bilan birga amaliyot ham olib borish kerak. Shundagina bajarilgan ilmiy sh har tomonlama puxta, mukammal bo‘ladi. Zamon XXI asr bizga ilgari bobo-momolarimiz duch kelmagan tarbiyaviy vazifalarni, talablarini oldimizga qo‘ymoqda. Masalan, o‘quvchilarimizga, talabalarimizga internetdan foydalanishni o‘rgatish uchun avval o‘zimiz shu narslarni bilishimiz kerak bo‘lgani kabi tabiiy geografiya kursi mavzularini yoritishda ham badiiy ijodni, badiiy adabiyotni o‘zimiz har tomonlama yaxshi bilishimiz kerak. Darhaqiqat, biz tushunmagan narsamizga qanday munosabatda bo‘la olamiz va uni boshqlarga qanday tushuntiramiz?. Tarbiyaning zamoni bugun tarbiyaviy bilimni kuchaytirish va texnologiyalarni qo‘llashimizni talab qilayotgan zamonda bu kabi ishlarni amalga oshirish doimgidan ham ko‘proq fan sohalariga kerak. Bunadan tashqari, umumta’lim maktablari tabiiy geografiya kurslarida (Bundan tashqari biologiya, matematika, tarix va boshqa fanlarda ham bevosita foydalanish mumkin.) usuldan foydalanishning ahamiyati mifik o‘quvchilarining darslar davomida olgan nazariy bilimlarini umumlashtirish, ularni mustahkamlash, o‘quvchilar tafakkurida geografik-ekalogik madaniyatni shakllantirish, O‘zbekistonda geografiya fanini rivojlanishiga va uning ahamiyatini keng targ‘ib etishda muhim ahamiyatga ega. She’riy metod va qo‘srimcha badiiy adabiyotlardan foydalanish orqali, o‘quvchilar mustaqil bilim olishlari hamda amalda mavzu yuzasidan tasvvurga ega bo‘lishadi. Shuningdek o‘quvchi yoshlarni geografiya faniga bo‘lgan qiziqishlarini ortishiga, qolaversa ularni yangi ilmiy tadqiqot ishlariga undaydi. Shu bilan bir qatorda geografiya fani bo‘yicha ko‘nikma va malakalarini oshirishlariga yordam beradi.

XULOSA

O‘quvchilar mavzuga tegishli bo‘lgan ma’lumotlarni bitta kitobdan yoki darslikdan olishga harakat qilishadi, bu esa ko‘p hollarda fanni o‘zlashtirish uchun kamlik qiladi. Shuning uchun ham geografiya darslarida badiiy ijoddan keltirilgan misollar orqali mavzular har tomonlama keng yoritiladi. Qolaversa, o‘quvchilar geografiya faniga tegishli bo‘lgan mavzularni badiiy ijod orqali ham olish mumkinligini anglab, boshqa adabiyotlarni ham izlashga tushadi. Bu esa ular uchun juda qiziq bo‘lish bilan bir qatorda, yosh-psixologik hususiyatlariga ham mos keladi. Shuningdek, darsning har tomonlama qiziqarli, bahs-munozarali o‘tishiga asos bo‘ladi. Shunday ekan, geografiya darslarida badiiy ijod namunalaridan foydalanish, zamon talabidan kelib chiqgan holda, dars o‘tish jarayoniga yangicha yondashishni kerakligini yana bir bor o‘zida namoyon etadi.

REFERENCES

1. Sobirxonov. A.T. Tabiiy geografiya kursida mavzularni yoritishda badiiy metoddan foydalanish (o‘quv-uslubiy qo‘llanma) - T.:”Turon zamin ziyo” 2015. 32-33 b.
2. Sobirxonov. A.T. Tabiiy geografiya fani darslarida qo‘srimcha badiiy adabiyotlardan foydalanishning o‘rni va ahamiyati. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari-T. 2015. 426 b.
3. Nabixonov. M. Tabiiy geografiya darslarida qo‘srimcha badiiy adabiyotlardan foydalanishning ahamiyati-T. 1968. 17 b.
4. Akhmedov, B. A. (2019). THE ROLE OF UZBEKISTAN ON ESTABLISHING KARAKUL (ASTRAKHAN) SHEEP BREEDING IN FOREIGN COUNTRIES. Theoretical & Applied Science, (3), 72-75.